

## XII. DEMOGRAFIK HOLAT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021 yilning 1 oktabr holatiga viloyatning doimiy aholisining soni 1435,0 ming kishini tashkil etib, yil boshidan 24,5 ming kishiga yoki 101,7 foizga ko'paydi. Shundan, 671,4 ming kishi – shahar joylarida (jami aholi sonining 46,8 %) va 763,6 ming kishi – qishloq joylarida (53,2 %) istiqomat qiladi.

**Jizzax viloyatining hududlari  
bo'yicha doimiy aholi soni to'g'risida ma'lumot  
(2021 yilning 1 oktabr holatiga)**

	Doimiy aholi soni, ming kishi			Doimiy aholi sonining o'sish sur'ati, foizda			Doimiy aholi sonining viloyatda ulushi, foizda		
	jami	shu jumladan:		jami	shu jumladan:		jami	shu jumladan:	
		shahar	qishloq		shahar	qishloq		qishloq	shahar
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>1435,0</b>	<b>671,4</b>	<b>763,6</b>	<b>102,3</b>	<b>102,2</b>	<b>102,3</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>


*shahar:*

Jizzax	183,9	183,9	0	102,3	102,3	0,0	12,8	27,4	0,0
--------	-------	-------	---	-------	-------	-----	------	------	-----

*tumanlar:*

Arnasoy	47,1	16,3	30,8	101,7	102,4	101,3	3,3	2,4	4,0
Baxmal	162,3	43,9	118,4	102,4	102,5	102,3	11,3	6,5	15,5
G'allaorol	178,0	62,4	115,6	102,2	102,0	102,4	12,4	9,3	15,1
Sharof Rashidov	231,0	91,3	139,7	102,9	102,7	103,0	16,1	13,6	18,3
Do'stlik	67,4	28,5	38,9	101,7	101,4	102,0	4,7	4,2	5,1
Zomin	170,2	81	89,2	102,5	102,7	102,3	11,8	12,1	11,7
Zarbdor	89,8	49,8	40	102,6	102,5	102,8	6,3	7,4	5,2
Zafarobod	51,3	23,4	27,9	101,9	101,8	102,0	3,6	3,5	3,7
Mirzacho'l	53,3	29,8	23,5	101,7	101,6	101,7	3,7	4,4	3,1
Paxtakor	76,9	37,4	39,5	102,1	101,6	102,6	5,4	5,6	5,2
Forish	94,9	17,6	77,3	101,5	101,5	101,5	6,6	2,6	10,1
Yangiobod	28,9	6,2	22,7	101,5	102,9	101,1	2,0	1,0	3,0

**Viloyat doimiy aholisi soni tarkibida hududlar ulushi, % da  
(2021 yil 1 oktabr xolatiga)**



### Yanvar-sentabr oylarida viloyat bo'yicha aholining tabiiy harakati koeffitsiyentlari

Ko'rsatkichlar	Kishi soni		1000 aholiga nisbatan	
	2020 yil	2021 yil	2020 yil	2021 yil
Tug'ilganlar	28 276	30 824	27,1	29,0
Vafot etganlar	4 274	4 446	4,1	4,2
<i>shu jumladan:</i>				
bir yoshgacha bolalar	252	255	9,0	8,3
Nikohlar	8 762	9 178	8,4	8,6
Ajralishlar	748	947	0,7	0,9

**Tug'ilish.** 2021 yilning yanvar-sentabr oylarida tug'ilganlar soni 30824 kishini tashkil etdi va 2020 yilning shu davriga (28276 kishi) nisbatan 2548 kishiga ko'paydi, shunga mos ravishda tug'ilish koeffitsiyenti 29,0 promilleni tashkil qildi.

Tug'ilish koeffitsiyentining sezilarli ko'payishi Jizzax shaharda (22,5 promilledan 29,7 promillegacha), Zomin (28,7 promilledan 31,6 promillegacha), Paxtakor (24,9 promilledan 28,6 promillegacha), tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

**Hududlar kesimida tug‘ilganlar soni va koeffitsiyenti**  
**2021 yilning yanvar-sentabr holatiga (1 000 aholiga nisbatan, promille)**




**O‘lim.** 2021 yilning yanvar-sentabr oylarida o‘lganlar soni 4 446 kishini tashkil qildi va 2020 yilning shu davriga (4 274 kishi) nisbatan 172 kishiga ko‘paydi, mos ravishda o‘lim koeffitsiyenti 4,2 promilleni tashkil qildi (2020 yil yanvar-sentabrdan 4,1 promille bo‘lgan).


O‘lim koeffitsiyentining sezilarli o‘sishi Do’stlik (3,0 dan 3,9 promillegacha), Mirzacho’l (2,7 dan 3,3 promillegacha), Zafarobod (3,4 dan 3,8 promillegacha) hissasiga to‘g‘ri keladi.

O‘lim darajasining eng past ko‘rsatkichi Arnasoy (3,3 promille) Zarbdor (3,7 promille), tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

**Hududlar kesimida o‘lganlar soni va koeffitsiyenti**  
**2021 yilning yanvar-sentabr holatiga (1 000 aholiga nisbatan, promille)**



O‘lganlar umumiy sonidan 49,4 foizi qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 8,9 foizi – o‘sma kasalliklaridan, 8,7 foizi – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlardan, 5,0 foizi – ovqat hazm qilish organlari kasalliklaridan, 9,2 foizi – nafas olish organlari kasalliklaridan, 2,4 foizi – infeksion va parazitar kasalliklaridan, 16,4 foizi – boshqa kasaliklardan vafot etgan.




Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2021 yilning yanvar-sentabr oylarida 255 ta bir yoshgacha bolalar o‘limi qayd etilgan. Go‘daklar o‘limi koeffitsiyenti 8,3 promilleni (2020 yil yanvar-sentabrdagi 9,0 promille bo‘lgan) tashkil qildi.

Go‘daklar o‘limining yuqori ko‘rsatkichlari (har 1 000 tirik tug‘ilganga nisbatan promille), Jizzax shaxar (16,8) Zomin (11,6) va Zafarobod (9,7) tumanlarida kuzatildi.

Bir yoshgacha o‘lgan bolalarning umumiy sonidan 51,8 foizi perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 30,2 foizi – nafas olish organlari kasalliklaridan, 1,9 foizi – tug‘ma anomaliyalardan, 1,2 foizi – infeksion va parazit kasalliklaridan, 2,7 foizi – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlardan, 0,8 foizi – ovqat hazm qilish organlari kasalliklaridan va 11,4 foizi – boshqa kasalliklardan vafot etgan.

**Nikohlar va ajralishlar.** 2021 yilning yanvar-sentabr oylarida fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida 9 178 ta nikohlar va 947 ta nikohdan ajralishlar qayd etilgan, 1 000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 8,6 (2020 yilning yanvar-sentabrdagi 8,4 bo‘lgan) va nikohdan ajralish koeffitsiyenti 0,9 ni (2020 yilning yanvar-sentabridagi 0,7 bo‘lgan) tashkil etgan.



Tuzilgan nikohlar soni 2020 yilning mos davriga nisbatan ayrim xududlarda sezilarli ko‘payish kuzatilgan. Bunda eng yuqori ko‘payish sur’ati Jizzax shaxrida (130,2 %), Zomin (117,5 %), Mirzacho’l (114,1 %), Zarbdor (113,4 %) va Paxtakor (112,3 %) tumanlariga to‘g‘ri kelmoqda.

**Hududlarda yanvar-sentabr oylarida tuzilgan nikohlar  
va nikohdan ajralishlar soni**

(kishida)

	<i>Tuzilgan nikohlar</i>		<i>Nikohdan ajralishlar</i>	
	<i>2020 yil</i>	<i>2021 yil</i>	<i>2020 yil</i>	<i>2021 yil</i>

<b>Jizzax viloyati</b>	<b>8 762</b>	<b>9 178</b>	<b>748</b>	<b>947</b>
------------------------	--------------	--------------	------------	------------


*shahar:*

Jizzax	960	1 250	126	146
--------	-----	-------	-----	-----

*tumanlar:*

Arnasoy	283	273	28	33
Baxmal	1 114	977	59	84
G‘allaorol	1 217	1 219	93	113
Sharof Rashidov	1 674	1 609	115	145
Do‘slik	391	360	30	36
Zomin	919	1 080	92	109
Zarbdor	485	550	52	61
Zafarobod	331	290	26	45
Mirzacho‘l	241	275	21	38
Paxtakor	454	510	39	61
Forish	523	597	41	53
Yangiobod	170	188	26	23

**Hududlar kesimida nikohdan ajrashganlar soni va koeffitsiyenti  
(2021 yil yanvar-sentabr)**



Ajrimlar sonini 2020 yilning mos davriga nisbatan taqqoslanganda, yuqori o'sish sur'ati Mirzachul (181,0), Zafarobod (173,1), Paxtakor (156,4) Baxmal (142,4) va Forish (129,3) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

## Yanvar-sentabr oylarida aholining tabiiy o‘sishi soni va koeffitsiyenti

*(kishida)*

	<i>Kishi soni</i>		<i>1 000 aholiga nisbatan</i>	
	<i>2020 yil</i>	<i>2021 yil</i>	<i>2020 yil</i>	<i>2021 yil</i>

<b>Jizzax viloyati</b>	<b>24 002</b>	<b>26 378</b>	<b>23,0</b>	<b>24,8</b>
------------------------	---------------	---------------	-------------	-------------

*shahar:*

Jizzax	2 397	3 448	17,9	25,3
--------	-------	-------	------	------

*tumanlar:*

Arnasoy	679	732	19,7	20,9
Baxmal	3 257	3 449	27,6	28,7
G‘allaorol	3 219	3 433	24,9	26,0
Sharof Rashidov	4 144	4 189	24,8	24,5
Do‘stlik	1 015	1 041	20,6	20,7
Zomin	3 040	3 434	24,7	27,3
Zarbdor	1 673	1 772	25,8	26,6
Zafarobod	800	887	21,4	23,3
Mirzacho‘l	716	695	18,4	17,5
Paxtakor	1 161	1 409	20,7	24,7
Forish	1 443	1 476	20,7	20,9
Yangiobod	458	413	21,6	19,2

**Migratsiya.** Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021 yilning yanvar-sentabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 6 966 kishi, shu davr mobaynida ko'chib ketganlar soni esa 8 896 kishi tashkil qildi. Mos ravishda migratsiya qoldig'i minus 1 930 kishi tashkil etgan, 2020 yilning mos davrida minus 2 466 kishi bo'lgan.

### Yanvar-sentabr oylarida aholining migratsiya ko'rsatkichlari

(kishi)

	Kelganlar		Ketganlar		Migratsiya saldosи	
	2020 yil	2021 yil	2020 yil	2021 yil	2020 yil	2021 yil
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>4 986</b>	<b>6 966</b>	<b>7 452</b>	<b>8 896</b>	<b>-2 466</b>	<b>-1 930</b>
<i>shahar:</i>						
Jizzax	1 278	1 527	1 330	1 601	-52	-74
<i>tumanlar:</i>						
Arnasoy	142	216	352	368	-210	-152
Baxmal	225	366	774	907	-549	-541
G'allaorol	281	359	767	843	-486	-484
Sharof Rashidov	1 143	1 758	1 032	1 143	111	615
Do'stlik	361	354	478	558	-117	-204
Zomin	122	504	616	702	-494	-198
Zarbdor	344	442	412	533	-68	-91
Zafarobod	136	335	344	392	-208	-57
Mirzacho'l	376	330	286	426	90	-96
Paxtakor	318	445	463	632	-145	-187
Forish	174	214	492	605	-318	-391
Yangiobod	86	116	106	186	-20	-70

Migratsiya saldosining yuqori darajasi Baxmal (minus 541 kishi), G‘allaorol (minus 484), Forish (minus 391) va Do‘stlik (minus 204) tumanlarida qayd etildi. Migratsianing ijobiy saldosi Sharof Rashidov tumani (615 kishi) kuzatildi.

**Doimiy aholisi sonining yosh guruhlari bo‘yicha taqsimlanishi  
(yil boshiga; kishi)**

*(kishi)*

	<i>Jami aholi soni</i>	<i>shundan:</i>			
		<i>0-2 yosh</i>	<i>3-6 yosh</i>	<i>7-16 yosh</i>	<i>0-16 yosh</i>
<i>A</i>	<i>1</i>	<i>2</i>	<i>3</i>	<i>4</i>	<i>5=2+3+4</i>

<b>Jizzax viloyati</b>	<b>1 410 516</b>	<b>104 750</b>	<b>120 008</b>	<b>254 363</b>	<b>479 121</b>
------------------------	------------------	----------------	----------------	----------------	----------------

*shahar:*

Jizzax	180 516	11 388	12 256	29 997	53 641
--------	---------	--------	--------	--------	--------

*tumanlar:*

Arnasoy	46 531	2 963	3 652	8 321	14 936
Baxmal	159 341	13 582	15 487	28 917	57 986
G‘allaorol	175 009	13 768	15 505	31 260	60 533
Sharof Rashidov	226 212	18 379	20 578	42 040	80 997
Do‘stlik	66 539	4 349	5 285	12 542	22 176
Zomin	166 932	13 454	14 791	31 099	59 344
Zarbdor	88 159	7 060	8 288	16 426	31 774
Zafarobod	50 495	3 391	3 932	9 219	16 542
Mirzacho‘l	52 657	2 943	3 746	9 612	16 301
Paxtakor	75 712	5 132	6 401	13 269	24 802
Forish	93 820	6 363	7 781	16 324	30 468
Yangiobod	28 593	1 978	2 306	5 337	9 621

## XIII. O'RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI

### 2021 yil yanvar-sentabr oylarida Jizzax viloyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal ish haqi miqdori (dastlabki ma'lumot)


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ish haqi ko'rsatkichlarini umumlashtirish natijasida, 2021 yil yanvar-sentabr oylarida Jizzax viloyatida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **2 347,7 ming so'mni** (ish haqiga ustama, mukofot, rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to'lovlar kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig'i, ijtimoiy sug'urta va kasaba uyushmasiga to'lovlar ham mavjud) tashkil etdi.

#### Tarmoqlar kesimida o'rtacha oylik ish haqi (2021 yil yanvar-sentabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm	
<b>Jizzax viloyati bo'yicha – jami</b>	
<b>2 347,7</b>	
<i>shu jumladan:</i>	
Sanoat	2 428,6
Qurilish	2 535,3
Savdo	2 855,1
Tashish va saqlash	1 792,9
Yashash va ovqatlanish	-
Axborot va aloqa	3 538,3
Moliyaviy va sug'urta faoliyati	6212,2
Ta'llim	2 152,4
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1 901,3
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	-
Boshqa faoliyat turlari	2 688,1

O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichini hududlar bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, o‘rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Jizzax shahrida 3 029,3 ming so‘mni (viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 129,0 %), Zafarobod tumanida 2 291,9 ming so‘mni (97,6 %) va Baxmal tumanida 2 209,0 ming so‘mni (94,1 %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo‘lmoxda.

**Sohalar kesimida o‘rtacha oylik ish haqi miqdori va o‘sish sur’ati**  
(2021 yil yanvar-sentabr)



**Yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan korxona va tashkilot xodimlar soni, ish haqi fondi hamda o‘rtacha oylik ish haqi**

*(2021 yil yanvar-sentabr; qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subektlaridan tashqari)*

	<i>Korxona va tashkilotlar soni, birlik:</i>	<i>Xodimlar soni, kishi:</i>	<i>O‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘m:</i>
--	--	------------------------------	--

<b>Jizzax viloyati bo‘yicha – jami</b>	<b>3 254</b>	<b>98 455</b>	<b>2 347,7</b>
--	--------------	---------------	----------------

*shu jumladan:*

Sanoat	35	12 311	2 428,6
Qurilish	4	200	2 535,3
Savdo	10	1 036	2 855,1
Tashish va saqlash	7	1 132	1 792,0
Yashash va ovqatlanish	4	-	-
Axborot va aloqa	18	496	3 538,3
Moliyaviy va sug‘urta faoliyati	20	2 004	6 212,2
Ta’lim	1 327	47 003	2 152,4
Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	84	19 319	1 901,3
San’at, ko‘ngil ochish va dam olish	180	-	-
Boshqa faoliyat turlari	3 254	98 455	2 347,7



**Sanoat sohasi** bo'yicha bir qator shahar va tumanlar o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyat o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlari kuzatildi. Viloyat o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Zafarobod – 215,0 %, Paxtakor – 135,4 % Zarbdor – 109,9 %, Forish – 104,5 %, tumanlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Shu bilan birga, viloyatning ba'zi tumanlarida ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyat darajasidan past ekanligi kuzatildi.

Ish haqining nisbatan past ko'rsatkichlari Jizzax shahri – 99,0 %, Zomin – 92,6 %, Sharof Rashidov – 86,5 %, G'allaorol – 86,3 %, tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.



**Qurilish sohasidagi** o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqini ko'radigan bo'lsak, eng yuqori ko'rsatkich Mirzacho'l – 108,5 % viloyat darajasidan yuqori ko'rsatkichlar kuzatildi.

Shu bilan bir qatorda, viloyatning ba'zi tumanlari qurilish sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyat darajasidan past bo'ldi.

Qurilish sohasida viloyat ko'rsatkichidan sezilarli darajada past o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi Jizzax shahri – 99,2 %, va Zafarobod – 53,6 % tumanlarida kuzatildi.



**Savdo sohasidagi** o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqini ko'radigan bo'lsak, eng yuqori ko'rsatkich Jizzax shahrida – 100,3 % viloyat darajasidan yuqori ko'rsatkichlar kuzatildi.

Shu bilan bir qatorda, viloyatning ba'zi tumanlari qurilish sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyat darajasidan past bo'ldi.

Savdo sohasida viloyat ko'rsatkichidan sezilarli darajada past o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi Baxmal – 98,1 %, Mirzacho'l – 96,3 % hamda Do'stlik – 45,5 % tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.



**Ta'lim** sohasi bo'yicha qator shahar va tumanlarda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori ko'rsatkichlari kuzatildi.

Viloyatdagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqiga nisbatan sezilarli yuqori ko'rsatkichlar Jizzax shahri – 129,2 %, Baxmal – 108,3 %, Zomin – 103,2 %, Arnasoy – 101,1 % tumanlari hissasiga to'g'ri kelgan. Shu bilan birga, ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining ba'zi tumanlarda viloyat o'rtacha ko'rsatkichidan past ekanligi kuzatildi.

Viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan sezilarli past ko'rsatkichlar Do'stlik -96,1 %, Yangiobod – 95,0 % va Sh.Rashidov – 95,0 %, Zarbdor – 94,8 % tumanlari hissasiga to'g'ri kelgan.



**Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar** ko'rsatish sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlari Mirzacho'l – 111,8 %, Jizzax shahri – 111,1 %, Do'stlik – 109,5 %, Arnasoy – 107,3 % tumanlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ba'zi tumanlarida viloyat o'rtacha oylik ish haqi ko'rsatkichidan past bo'ldi.

Xususan, ish haqining nisbatan past ko'rsatkichlari Baxmal – 97,6 %, G'allaorol – 93,9 %, Sharof. Rashidov – 89,2 % va Forish – 86,5 % tumanlarida kuzatildi




**Bank, sug'urta va vositachilik** faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan ko'rib chiqilganda eng yuqori ko'rsatkich Jizzax shahrida – 101,1 % ni tashkil etdi.


Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyatning ba'zi tumanlarida viloyat o'rtacha oylik ish haqi ko'rsatkichidan past bo'ldi.

Ish haqining sezilarli past ko'rsatkichlari Yangiobod – 86,5 %, Do'stlik – 47,8 % tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

**Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**  
*(2021 yil yanvar-sentabr, ming so'mda)*



**Hududlar bo'yicha o'rtacha ish haqi miqdorining viloyatdagi  
 o'rtacha ish haqiga nisbatan o'sishi**  
*(2021 yil yanvar-sentabr oylarida viloyatdagi o'rtacha oylik  
 ish haqiga nisbatan, % da)*



**Shahar va tumanlar bo‘yicha yuridik shaxslarda ishlovchilarning o‘rtacha oylik nominal hisoblangan mehnatga haq to‘lash tarzida hisoblangan daromadlari**

(2021- yil yanvar-sentabr; qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari ming so‘m)

	<i>2020 yil yanvar-sentabr</i>	<i>2021 yil yanvar-sentabr</i>	<i>O‘sish sur’ati, %.</i>
Jizzax viloyatida	2 091,5	2 347,7	112,3
Jizzax shahri	2 655,9	3 029,3	114,1
tumanlar:			
Arnasoy	1 831,2	1 956,1	106,8
Baxmal	1 954,0	2 209,0	113,0
G‘allaorol	1 677,9	1 714,8	102,2
Sharof Rashidov	1 748,9	1 949,8	111,5
Do‘stlik	1 967,6	2 072,4	105,3
Zomin	1 942,2	2 164,9	111,5
Zarbdor	1 803,3	2 069,9	114,8
Zafarobod	1 634,1	2 291,9	140,3
Mirzacho‘l	1 819,4	2 017,1	110,9
Paxtakor	2 028,7	2 067,1	101,9
Forish	1 634,1	1 912,6	117,0
Yangiobod	1 726,5	1 980,0	114,7

*Ma’lumot uchun: O‘zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to‘liq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjatlarida Mehnatga haq to‘lash yagona tarif setkasining birinchi razryadi (2021-yil sentabr oyidan 822,0 ming so‘nni tashkil etgan, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 18-yanvardagi 47-sonli qaroriga binoan, mehnatga haq to‘lash yagona tarif setkasiga o‘zgartirish kiritildi va 1,2,3-razryadlari koeffitsiyentlari oshirildi) bo‘yicha belgilangan miqdordan oz bo‘lishi mumkin emasligi ko‘rsatib o‘tilgan.*



**JIZZAX VILOYATINING  
STATISTIK AXBOROTNOMASI  
2021 YIL YANVAR-SENTABR**

*Nashrga mas’ul:  
Statistika faoliyatini tashkil etish  
va yig‘ma axborot-tahliliy ishlar bo‘limi*

**tel.: 0(372) 221-53-51**

**Buyurtma raqami № 23.10.2021 yil Tiraj 15 nusxa**

**Jizzax viloyati statistika boshqarmasi  
Jizzax shahri, To‘qimachilar ko‘chasi 7**

Rasmiy veb-sayt: [www.jizzaxstat.uz](http://www.jizzaxstat.uz)  
elektron pochta manzili: info@jizzaxstat.uz  
elektron himoyalangan pochta manzili: jiz.stat@exat.uz